

DANTE ALIGHIERI “ILOHIY KOMEDIYA”

*KIUT Samarqand filiali talabasi**Husanova Marjona**+998 93 885-11-08**Ilmiy Rahbar: Zubaydova Nilufar*

Anotatsiya. Ushbu maqola Italiyalik mashhur yozuvchi Dante Alighieri xayoti hamda uning bugungi kunda ham mashxur bòlgan va òquvchi yoshlarning bilim va tafakkurini rivojlantirish uchun òz hissasini qòshib kelayotgan mashxur asarlari haqida tuxtalib òtamiz hamda yoritib beramiz.

Kalit sòzlar: Gumanizm, ”Dòzax”, “A’rof”, “Jannat”, qarashlar, monarxiya, adolat.

Bugungi kunda òquvchi yoshlarning bilim va salohiyatini rivojlantirish maqsadida yurtimizda amalga oshirilayotgan bir qancha islohotlar natijasida maktab va oliy talim muassasalarida adabiyot fanlarini chuqurlashtirib òrgatish yòlga qòyilmoqda. Shu bilan bir qatorda nafaqat òzbek adabiyoti vakillari balki jahon adabiyotining yirik namoyondalari asarlari ham bugungi kunda ommalashib jamiyat etiboriga havola etilmoqda. Bulardan Italiyalik mashxur yozuvchi Dante Alighierini hayot yuli va ijodiga tuxtaladigan bulsak yozuvchi 1265-yilning 14-mayida Florensiyada tavvalud topgan. Yozuvchi qadimiy dvoryanlar naslidan bòlib òzining asarlari bilan xalqning kònglidan joy olgan. Ayniqsa yozuvchining 1292-yili yozilgan “Yangi hayot” asari sevgilisi Beatrichega bağishlangan. Bu asar sonetlardan va nasriy lavhalardan iborat bòlgan. Yozuvchining sevgilisiga bağishlab yozilgan sonetidan tashqari falsafiy ruhdagi va gumanistik qarashlarni ilgari suradigan asarlari ham mavjud. Bulardan “Bazm” (1308), “Monarxiya haqida” (1313), “Yer va suv haqida” (1320) kabilarni misol qilib kòrsatishimiz mumkin. Ushbu asarlarni òqib chiqar ekanmiz davrning ijtimoiy-axloqiy va dolzab muammolariga yechim topishimiz mumkin. Yuqorida sanab òtgan asarlarimizdan birida yani “Monarxiya haqida” asarida butun jahon monarxiyasi yer yuzidagi barcha odamlarning tinchligini va faravonligini taminlaydigan yurtni adolatli va qudratli davlat shaxlida rivojlantirishiga va himoya qilishiga undaydi. Yozuvchining yuqorida takidlab òtgan asarlarimizdan tashqari òrta asrlar madaniyatining òsishi va yuksalishi berilgan “Ilohiy Komediya” asari ham mavjud. Ushbu asarga tòxtaladigan bòlsak asar 3-qismdan iborat bular “Dòzax”, “A’rof”, “Jannat” hisoblanadi. Bularni yoritib beradigan bòlsak “Dòzax” qismida yozuvchi insonlarning gunohlari va jazolari bilan boğliq bòlgan holatlarni chuqurroq qilib tasvirlab bergan. Asarning bu qismida ilohiy adolatning muqarrarligi ham kòrsatib òtilgan. Har bir gunohkor inson òzlarining qilgan har bir gunohalariga mos

ravishda jazo olishlari muqarrar. Shu bilan birga yozuvchi Xudoning ham adolatliligini takidlab o'tadi. Yozuvchi o'zining asarlarida insoniyatga axloqiy va manaviy bilimlarni ham yetkazgan. Har bir gunohning jazosi mavjud har bir inson o'z gunohlari uchun javobgardir. Asarning ikkinchi b'limi yani "A'rof" qismi hisoblanadi. Bu b'limda insonlarning gunohlaridan tozlash va tavba qilish jarayonlari aks etirilgan. Bu qismda yani "D'ozax" qismida jazolangan ruhlar o'zlarini poklab Xudo huzuriga kirishga tayorlanishadilar. Ushbu qismda ruhlarning gunohlari qay darajada o'g'irligiga qarab farqlanadi. A'rofdagi yuqoridagilardan tashqari asosiy darajalar ham mavjud ular quydagilar hisoblanadi. Ochk'ozlik: bu qismda ruhlar o'zlarining ochk'ozlaiklari tufayli jazolanishadilar. G'azab: bu qismda ruhlar g'azabdan aziyat chekadilar va ular tavba qilib o'zlarining yovuzliklarini tan olishgan. Lanatlanganlar: bu qismda ruhlar o'zlari qilgan yomonliklari tufayli tavba qilib poklanishning boshlanishini tasvirlaydi. A'rofning yakunida poklanish jarayoni muvaffaqiyatli yakunlangan va ruhlar uchun jannatga kirish yo'llari ochilgan. Shundan keyin asarning uchunchi va s'ngi b'limi "Jannat" hisoblanadi. Bu b'limda insonning ruhiy va manaviy yuksaklikka erishish va Xudo bilan birlashish jarayonlari aks etgan. Yozuvchi ushbu b'limda jannatning tuzulishi va undagi mukofotlarni tasvirlaydi. Yozuvchi jannatda ilohiy haqiqatni anglash va o'zining ruhiy salohiyatini yakuni sifatida tasvirlaydi. Dante nafaqat Xudoning nurlarini balki butun koinot va insoniyatning mukammaligini tushunadi.

Xulosa qilib aytadigan bulsak yozuvchi o'zining Ilohiy Komidiyasida bu dunyodagi manzaralarni ranglar xilma xilligini u dunyo manzaralariga ham olib kiradi. Ularni turli ranglarda D'ozax, A'rof, va Jannat qiyofasida k'rsatib beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. <https://uz.wikipedia.org>
2. Golenishev – Kutuzov I, Tvorchestvo Dante imirovaya literature, M. 1971.
3. Komilov N. Ibn Sino va Dante T 1983
4. Sulaymonova F. Sharq va Garb T 1997
5. Komilov N. Tafakkur karvonlari T 1999
6. Bojestvennaya komediya M 1961
7. O'zME Birinchi jild. Toshkent 2000-yil Najmiddin Komilov.
8. Dante Aligheiri "Ilohiy Komediya" (1948) O'zbek tiliga tarjimai Navoiy nomidagi o'zbek tili va adabiyoti.